
SHARSHARALIKLAR AMALIY YORDAMDAN MAMNUN BO'LISHDI

Davlatimiz rahbarining topshirig'iga ko'ra Prezident maslahatchisining o'rribbosari Ulug'bek Muhammadiyev rahbarligidagi Ishchi guruhi a'zolari joriy yilning mart oyida viloyat va shahar hokimliklari vakillari ishtirokida Farg'ona shahrida o'rganishlar olib borishgan edi.

O'rganishlar davomida fuqarolar bilan o'tkazilgan uchrashuvlarda "Sharshara" mahallasida yashovchi aholi vakillari Ishchi guruhiga ichimlik suvi ta'minoti hamda ko'chalarini asfalt qilish masalasida murojaat qilishgan edi. Mazkur murojaat nazoratga olinib, shu davrdayoq amaliy ishlar boshlangan edi.

Shu kunga qadar mahallada ichimlik suvi qudug'i qazildi. 3100 metrdan ortiq ichimlik suvi tarmog'i tortildi. 600 ga yaqin xonadonlar toza ichimlik suvi bilan ta'minlandi.

Shuningdek, mahallaning ichki ko'chalarida "Tashabbusli byudjet" loyihasi bo'yicha 3 ming metr asfalt yotqazish ishlari ham bajarildi. Yillar davomida yechimini topmayotgan muammolarning bartaraf etilishidan keksa-yu yosh birdek mamnun bo'lishdi.

Фарғона шаҳар ҳокимлиги Ахборот хизмати (<https://t.me/fargonauzpress>)

2023-08-19 10:00:38